Mingtepada tadqiqotlar davom etmoqda

O’zbekiston Respublikasi FA Arxeologik tadqiqotlar instituti va Xitoy Ijtimoiy FA Arxeologiya instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan O’zbekiston-Xitoy qo’shma arxeologik ekspeditsiyasi Farg’ona vodiysida Mingtepa shaxar harobasida ilmiy tekshiruv ishlarini davom ettirmoqda. Asosiy maqsad vodiyda shaharsozlik madaniyatini paydo bo’lishi, rivojlanishi va tanazzulini arxeologik manbalar yordamida tahlil etishdan iborat. Arkda, ichki va tashqi shahar qismlarida boshlangan arxeologik qazishmalar yangi ma’lumotlarni bermoqda. Hususan shaharni tarkibiy tuzilishi, xunarmandchiligi, san’ati, urf odatlari to’g’risidagi ma’lumotlar muhimdir. Ana shunday kashflardan biri shahardagi diniy inshoot bir qismini arkda topilishi bo’ldi. Bu inshoot arxeologlarga Yaqin Sharqdan ma’lum bo’lgan “zikkurat”ni eslatadi. Xozir mahobatli binoni yuqori qatlamlari ochildi, xolos. So’zsiz eramizni birinchi asrlariga taaluqli ushbu inshoot Farg’ona vodiysining antik davr urf odatlari to’g’risida yangi ma’lumotlar beradi